

ТАБИАТНИ МУХОFAZA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Rahimova Umidaxon

Tursunalieva, Furqat tuman

Politexnikumining Davlat va huquq
asoslari o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchi dars jarayonida interaktiv metodlarni qo'llaganda, o'quvchilarda darsga bo'lgan munosabati qay darajada bo'lgan munosabati qay darajada o'tishi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Ekologiya, tabiatni muhofaza qilish, ekologiya huquqi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ekologiya huquqining asosiy manbai hisoblanadi.

Konstitutsiyamizning shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy –huquqiy, madaniy-marifiy sohalaridagi asoslari mustahkamlangan bo'lib, u atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha davlat-huquqiy mexanizmini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. foda etadilar

Shuning uchun ham Konstitutsiyada belgilangan qoidalar orqali jismoniy va yuridik shaxslar ekologiya huquqi, burchlari va erkinliklarini ifoda etadilar.

Konstitutsiyamizda fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari majburiyat sifatida qayt etiladi. Bu ekologiyaga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish davlat siyosati darajasida qayt etilganidan dalolat beradi.


Konstitutsiyaning Jamiyatning iqtisodiy negizlari bobining moddalarida mulk huquqining mazmuni e'tirof etilishi bilan bir qatorda, mulkdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning xo'jalik va ishlab chiqarish jarayonida atrof muhitga ziyon etkazmasligi, ya'ni ularning ekologik majburiyatlari mustahkamlanadi. Konstitutsiyaning 55-moddasida berilgan qoidaning ahamiyati shundaki, birinchidan, mustaqilligimizning moddiy asosini tashkil etuvchi tabiiy

boyliklari xalqimizning boyligi,mulki ekanligi ,ikkinchidan, tabiiy resurslardan faqat oqilona foydalanish zarurligi, uchinchidan, respublikamiz tabiati davlat muhofazasiga olinganligi ,ya'ni ekologik –huquqiy munosabatlarni davlat tomonidan kafolatlanishi kabi muhim tamoyillarni mustahkamlaydi.

Ekologiya huquqi tabiat va jamiyat tizimida paydo bo'ladigan ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan keng qamrovli va ko'p tarmoqli huquq sohalaridan biri bo'lib, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishni o'rganuvchi fandır.Ekologik munosabatlar tizimida tabiiy resurslar, ya'ni yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish keng va muhim o'rinni egallaydi.

Tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish oqibatida tabiatda turli ekologik muammolar paydo bo'ladi va ekologik inqiroz keskinlashadi.Ekologiya huquqining tamoyillari tabiat–jamiyat tizimidagi o'zaro munosabatlar yo'nalishi , chegaralarini belgilab berishda ,ekologik-huquqiy mexanizmning barqarorligini kafolatlashda va qonunlar qoida-talablarining ekologik munosabatlarini tartibga solishda muhim ahamiyatga egadir.

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar juda xilma-xil va murakkab bo'lganligi uchun ham ekologiya huquqining tamoyillarini quyidagi tizimlarga bo'lishadi.



Ekologiya huquqi huquq tizimining sohasi sifatida ekologik munosabatlarni tartibga solishda qonuniylik , ijtimoiy adolat, oshkoralik , ishontirish va majburlov choralarining kombinatsiyasi , shaxslar huquq va burchlarining birligi va boshqalardan foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,
- 2.O.Karimova, N.Ismatova «Davlat va huquq asoslari».